

O‘ZBEKCHA TUB SO‘ZLAR ICHKI TIZIMI MUAMMOLARI***F.Shodiyev*****Annotatsiya**

Ushbu maqolada turkiy tillardagi, xususan o‘zbek tilidagi tub so‘zlarning fonetik qurilishi, fonemalar belgilaridagi tafovutlar, yasama so‘zlarning talaffuzi, ulardagi lisoniy muammolar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tub so‘z, ichki tizim, fonetik qurilish, turkiy tillar, milliy til, adabiy til, o‘zbekcha so‘zlar.

Аннотация

Анализ и обобщение исследований по изучению коренных слов в тюркологии, изучение фонетической структуры коренных собственных и заимствованных слов, а также их место и значение в современной узбекской лексике.

Ключевые слова: коренное слово, внутренняя система, фонетическая конструкция, тюркские языки, национальный язык, литературный язык, узбекские слова.

Abstract

Analysis and generalization the investigation on studying one-rooted words in Turkish, studying the phonetically structure of onerooted words on originality / unoriginality, as their place and importance in modern Uzbek lexic.

Key words: root word, internal system, phonetic construction, Turkic languages, national language, literary language, Uzbek words.

Lison – o‘zlik, zabon – so‘zlik, til – El uchun ko‘zlikdir. Shunga ko‘ra, til millat tafakkurining quyoshidir, shuningdek, lisoniy hamda ruhiy kamolotning tamal toshidir. Darhaqiqat, har bir tilning xuddi barmoq izlaridek takrorlanmas o‘ziga xos va ichki konuniyatiga mos tovush sistemasi bo‘ladi. Bu qonuniyat o‘sha tildagi so‘zlarning aniqligini va yashovchanligini ta‘minlaydi. Turkiy tillar tabiatining o‘q tomiri – singormanizm qonuniyati o‘z o‘zaniga imlo va yozuvda qaytmas ekan, millatimiz, tilimiz, so‘zlarimiz biz “chalamulla”larni kechirmaydi.

Afsuski, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[1]da o‘zbekcha so‘zlarning aksariyatini o‘zaklari keltirilmagan. Natijada, lug‘atga asosiy manba deb munosabatda bo‘lganlar qator qiyinchiliklarga duch kelishadi: **turmoqning** ham **turmakning** ham o‘zagi **tur** so‘zimi? Yoki **bo‘ldi** (erishdi) bilan **bo‘ldi** (ajratdi) so‘zlarining o‘zagi faqatgina bitta **bo‘l** so‘zimi? Bunday chalkashliklar 500 dan ortiq bir bo‘g‘inli so‘zlarning o‘zaklarida yuz bergan. Oqibatda, o‘zbek tili leksikasida, yuqorida ta‘kidlanganidek, sunniy ravishda tub so‘zlar va hosilalarining 1000 dan ortiqrog‘i boy berilib kelinmoqda. O‘zbek tiliga ko‘pgina so‘zlarning o‘zga tillardan o‘rinli-

o'rinsiz qabul qilinganligi etmaganidek, o'z ichki imkoniyatlarimizni yetarli darajada hisobga olmaganimiz imlomizga ham, nutqimizga ham, ma'naviyatimizga ham putur etkazmoqda. Bekorga taniqli tilshunoslar M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlar: "Biz ishonch bilan aytamizki... imlomiz rasvoligicha qolaveradi", - deb ta'kidlashmagan[2-13]. Darvoqe, o'zbek tili tarixida ham aksariyat turkiy tillar fonetikasida bo'lganidek, 9 unli mavjud bo'lib kelganiga qaramasdan, bugungi kunda, asossiz sabablarga ko'ra adabiy tilimizda ularning 3 tasi cheklangan. Bu bo'lsa **M.Koshg'ariyning** turkiy tillardagi har bir tovush haqida chuqur fikr bildirib: "Bu qoidalarni yaxshi o'rgan"[3-60], degan o'gitlariga, **A.Navoiyning** o'zbek(turk) tili leksemalari va "voviy" hamda "yoyiy" tovushlari haqida chuqur ma'lumotlar berib, bu nozikliklarning "hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilimag'on jihatdan yashirun qolibdur"[4-188], degan ilmiy dalillarga hech ham hamohang emasdir. Mazkur kamchiliklar hozirgi o'zbek tilidagi bir bo'g'inli so'zlar va ularning hosilalarini tekshirganimizda yanada ravshan ko'rinadi. Masalan, yuqorida keltirilgan *siylov* va *siydik* so'zlarining o'ziga e'tibor beraylik. Bu so'zlardagi "i" unlisi amaldagi orfografiyamiz va fonetikamizning qonuniyatlariga ko'ra faqatgina til oldi fonemasi bo'lib hisoblanadi. Demak, *siy* so'zi til oldida, yumshoq talaffuz qilinuvchi so'z – o'zakdir. Bunda *siylamoq* – *siylanmoq* – *siypalashmoq* – *siylov* – *siypalamoq* – *siypalanmoq* – *siypalatmoq* – *siylashmoq* – *siypamoq* – *siypashmoq* kabi yangi hosilalar urchib chiqqan(keltirilgan hosilalarning –*moq* qo'shimchasi aslida –*mak* tarzida yozilishi tilimizning tabiatiga uyg'un kelardi). Bu hosilalardagi birinchi bo'g'indagi "i" unli fonemasini til oldi tovushi ekanligiga shubha yo'q. Ammo *siydik* so'zidagi *siy* o'zagining "i" fonemasi ham til oldi tovushimi?! Bizningcha, bu tovush til orqa unlisidir va shu o'zakdan urchigan hosilalardagi tovushlar ham singarmonizm qonuniyatiga ko'ra til orqa unlilaridir: *siy*- *siydik*-*siymoq*-*siyg'oq* kabilar.

Yana shuni ham qayd etish kerakki, til oldi talaffuzli "i" unli fonemasi *siyrak* so'zi va uning hosilalarida ham qo'llanadi: *siyrak* – *siyraklashmoq* – *siyraklanmoq* – *siyraklatilmoq* – *siyraklatmoq* – *siyraklashmoq* – *siyrallashtirmoq* – *siyraklik* kabilar. Bulardan tashqari "i" unlisi til orqa talaffuzli tovush sifatida *siyqa* so'zi va uning hosilalarida ham kuzatiladi: *siyqa* – *siyqalamoq* – *siyqalanmoq* – *siyqalashish* – *siyqalatmoq* – *siyqalashmoq* – *siyqalashtirmoq* – *siyqalik* kabilar.

Darhaqiqat, til oldi va til orqa "i" unli fonemalari tilimizda mavjud. Buni yana o'nlab misollar orqali dalillash mumkin.

Shuningdek, hozirgi o'zbek tilidagi *bo'l* so'zining fonetik jihatlariga ham e'tibor beraylik. Bu so'zdagi "o'" unli fonemasi hozirgi orfografiyamiz va fonetikamizning qonuniyatiga ko'ra til orqa tovushidir, demak, bundan anglashiladiki, *bo'l* so'zi va undan urchigan hosilalardagi unlilarda singarmonik

uyg'unlik kuzatilmaydi. Aslida-chi? Til orqa "o'" fonemasi ishtirokidagi *bo'l* so'zidan *bo'la* – *bo'lajak* – *bo'ladi* – *bo'lalik* – *bo'lar* – *bo'lar-bo'lmas* – *bo'ldirmoq* – *bo'lib* – *bo'lish* – *bo'lishli* – *bo'lishmoq* – *bo'lik* – *bo'lma* – *bo'lmagan* – *bo'lmasa* – *bo'lmag'ur* – *bo'lmish* – *bo'lmoq* – *bo'lsa* – *bo'luv* – *bo'luvchi* – *bo'lg'usi* kabi hosilalar yasaladi. Ravshanki, yuqorida keltirilgan hosilalar *bo'l* so'zidagi "o'" tovushining til orqa unlisi sifatida talaffuz etilishini dalillaydi. Biroq *bo'l* so'zidagi "o'" unlisining til oldi ko'rinishi ham mavjud bo'lib, bu so'zdan quyidagi hosilalar shakllanadi: *bo'lak* – *bo'lakdan* – *bo'laklamoq* – *bo'laklanmoq* – *bo'laklatmoq* – *bo'laklashmoq* – *bo'lakcha* – *bo'lar* – *bo'lashmoq* – *bo'lashtirmoq* – *bo'ldirmoq* – *bo'lib* – *bo'lim* – *bo'limcha* – *bo'linish* – *bo'linma* – *bo'linmas* – *bo'linmoq* – *bo'lish* – *bo'lishli* – *bo'lishmoq* – *bo'lmagan* – *bo'lmasa* – *bo'lmoq* – *bo'lsa* – *bo'ltak* – *bo'ltak-so'ltak* – *bo'luv* – *bo'luvchi* kabilar.

Hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida *bo'l* so'zining til oldi va til orqa unlili boshqa-boshqa o'zaklari hamda bu o'zakka asoslangan o'nlab hosilalari kuzatiladi. Bu kabi ko'plab so'zlarni o'rinli belgilar bilan tuzatib yozish foydadan xoli emas. Yuqorida qayd etilgan "i" va "o'" unlilarining har birisini ikki xil talaffuz etilishini hisobga oladigan bo'lsak, buning ifodasiga amaldagi alifbomizning kuchi etmaydi. Agar biz yangi lotin alifbosiga o'tish jarayonida mazkur fonetik hosilalarni e'tiborga olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda nafaqat "bo'l" va "siy" so'zlarining o'zaklari hamda hosilalari, balki ko'plab tub o'zbekcha bir bo'g'inli so'zlarning asl tabiati o'z asligi binoan yozilardi va bu ish til qonuniyatiga to'liq mos kelardi. Yuqorida keltirilgan dalillarga hamohang ravishda tilimizda bir bo'g'inli so'zlar bilan bog'liq bir talay muammolar hamon izohtalabdir. Axir qachongacha o'zaklari boshqa-boshqa *o't-o't*, *o'r-o'r*, *o'n-o'n*, *o'z-o'z*, *o'l-o'l*, *bo'-bo'*, *to'r-to'r*, *to'l-to'l*, *qur-qur*, *bur-bur*, *suz-suz*, *tur-tur*, *tush-tush*, *sur-sur*, *un-un*, *ul-ul*, *uch-uch*, *tuz-tuz*, *kul-kul*, *it-it*, *bit-bit*, *is-is* kabi ko'plab so'zlarimiz va ularning hosilalaridagi farqli fonemalarni bo'lak belgilar bilan bitmaymiz?! Bu so'zlar va ularning hosilalari kabi kalomlarning imlosidagi etishmovchilikni olimlarimiz amaldagi alifbomizda 9 unli fonema tugal emasligida deb biladilar.

Muxtasar aytganda, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi "i" va "u" hamda "o'" fonemalarining juftlik variantlarini ham alifbomizga alohida-alohida belgilar bilan kiritish ona tili va uning tabiati oldidagi asosli burchimizdir. Zero, tovushlarning yozuvdagi belgilari etarli bo'lmasa, imlodagi kamchiliklar bartaraf bo'lmaydi. Bu borada o'zbek adabiy tilidagi bir bo'g'inli so'zlar va ularning hosilalari muammolari hal etilishining bir qismi ham tildagi unli fonemalarning yozuvda to'liq aks etmaganiga borib taqaladi.

Turkiy tillardagi, jumladan, o'zbek tilidagi tub so'zlarning aksariyatini bir bo'g'inli so'zlar tashkil etadi. H.Ne'matov yozganidek: «...eng qadimgi yozma

yodgorliklarda qayd etilgan davrdan hozirgi kungacha turkiy tub soʻzlar koʻpincha undosh – unli – undosh qurilishiga (yaʼni, bir boʻgʻinli soʻz tuzilishiga – F.Sh.) ega: oʻzb.: qoʻl, koʻp, koʻz, bosh, yuk, bir, besh va h.»[5-76]. Bu asosli qarashga hamohang, yaqin fikrlar tilshunoslarimiz A.N.Kononov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, F.Kamolov, U.Tursunov, X.Doniyorov, A.Hojiyev, E.Fozilov, Sh.Rahmatullayev, N.Turniyozov, E.Begmatov, B.Oʻrinboyev, B.Toʻychiboyev, A.Nurmonov, J.Hamdamiyov, B.Yusupov (Berdaq Yusuf) va boshqalarning ilmiy ishlarida ham taʼkidlangan[6-23]. Demak, oʻzbek adabiy tilidagi bir boʻgʻinli soʻzlar va ularning hosilalari keng qamrovli hamda uzoq tarixlidir.

«Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da 97 ta sof oʻzbekcha va 29 ta fors – tojik tilidan oʻzlashgan «oʻ» fonemali tub soʻzlar berilgan. Bular safiga «Izohli lugʻat»ga kiritilmagan 50 dan oshiq «oʻ» fonemali bir boʻgʻinli feʼllarni ham qoʻshish lozim. Chunki, birinchidan, A.Hojiyev tomonidan oʻz yoʻnalishi boʻyicha bir boʻgʻinli feʼllarning deyarli barchasi tadqiq etilgan. Ikkinchidan, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar taʼkidlaganidek: «Soʻz deganda lugʻat boyligidagi har bir birlik koʻzda tutiladi. Masalan **qoʻl** ham soʻz **va** ham soʻz»[7-51]. Bu mulohaza, bizningcha, bir boʻgʻinli feʼllarga ham taalluqlidir.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining shoʻro davridagi qabul qilingan va hamon oʻzgartirilmagan rasmiy qonuniyatiga koʻra «oʻ» bir qanot, oʻrta keng, lablangan, orqa qator unli fonemadir. Aslida–chi?! Gʻ.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning qayd etishlaricha; «Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema boʻlib (demak, «oʻ» fonemasi ham azaldan old qator va orqa qator ikki fonema – F.Sh), ular bir-biridan qatori, tor - kengligi, lablanish - lablanmasligiga koʻra farq qiladi»[8-7]. Bu haqiqatni baʼzi bir oʻzgarishlar bilan koshgʻariyshunos hamda navoiyshunos tilchilarimiz ham isbotlashgan. Bugungi kunda ham «oʻ» fonemasini til oldi va til orqa talaffuzli alohida – alohida fonemalar degan qarashlar mavjud. X.Doniyorov, N.Shukurov, B.Yoʻldoshevlarning fikricha: «Hozirgi yozuvimizda qoʻllanilgan «oʻ» harfi amalda ikki mustaqil tovushni ifodalashga xizmat qiladi («u» harfi ham xuddi shunday). Bu tovushlardan bittasi til oldi, yumshoq fonema, ikkinchisi esa til orqa, qattiq unli hisoblanadi»[9-54]. N.Turniyozov va F.Shodiyevlarning talqin etishicha, «oʻ» va «u» tovushlari juft – juft til oldi va til orqa unli fonemalardir. Bizningcha, bu toʻrt unli fonemani saqlab qolish tilimizning ichki ehtiyojidir. Ular deyarli barcha turkiy tillarda oʻzaro farqlanadi(10-40). B.Toʻychiboyevning mulohazasiga koʻra: «Aniq maʼno ajratish xususiyatiga ega boʻlgandan keyin ularni (til oldi va til orqa «oʻ» fonemalarini ham - F.Sh) variant deb emas, balki bimalol alohida fonema deb izohlash maqsadga muvofiq boʻlur edi[11-176].

Darhaqiqat, xalqaro Koshg'ariy mukofoti sovrindori Q.Mahmudov bitganidek: «...ming yillar davomida singarmonizm qonunlariga rioya qilgan tilimizni buzishga haqqimiz yo'q, agar fonetik qonunlarni buzsak, ming yillar osha davom etgan tilimizning ob'ektiv qonunlari izdan chiqqan bo'ladi»[12-22-24]. Bu tarixiy va tabiiy zaruriyatni to'la tushungan ma'naviyatimizning atoqli namoyandalari: I. Qo'chqortoyev, A.Hojiyev, O.Yoqubov, N.Mahmudov, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, A.Jabborov, A.Rafiyev, A.Madvaliyevlar 9 unli fonemaga asoslangan alifbomizni qisman isloh etib, qayta joriy qilish taklifi bilan chiqqan edilar: «Biz o'zbek tilining ko'p asrlik yozma an'analari, tilimizning hozirgi ahvoli va kelajagi to'g'risida fikr yuritib, mavjud alifbolarni bir-biriga, shuningdek, o'zbek tilining tovushlar tizimiga muqoyasa qilib ko'rib, Samarqand qurultoyida (1929) qabul qilingan alifbo latin harfli o'zbek alifbosi uchun asos bo'la oladi, degan xulosaga keldik»[13]. Zero, o'zlari o'zbek bo'lmagan, ammo o'zbek tili darsliklarini ona tilimiz tabiatidan kelib chiqib, 9 unli fonemali tizimga asoslanib yozgan V.Vyatkin, K.D.Gromatovich, I.P.Bibikov, I.A.Kissen[14] singari olimlardan kech bo'lsa-da, o'rnak olsak, ona tilimiz oldidagi qarzimizdan qittak qutularmidik?

Shunday qilib, «O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari» risolasi muallifining: «O'zbek tili taraqqiyot bosqichining biror davrida olti unliklik tizimiga ega bo'lmagan. Turkiy tillarning dastlabki davrida sakkiz unliklik tizimi, o'zbek tili tarixining barcha davrida to'qqiz unliklik tizimidan iborat bo'lgan. Tabiiyki, hozirgi o'zbek tili ana shu uzoq tarixiy bosqichning tadrijiy davomidir. Demak, o'z – o'zidan hozirgi o'zbek tili ham to'qqiz unliklik tizimiga amal qiladi»[15-176], - degan mulohazasiga to'liq qo'shilish mumkin.

Muxtasar aytganda, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida har qanday nutq tovushi fonema hisoblanar ekan, u albatta alohida belgi (harf) bilan ifodalanishi shart. Zero, sunniylik tabiiylikning kushandasidir. Tovush harfga, harf so'zga, so'z gapga, gap tilga, til milliy o'zlikka chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan ham ona tili tabiatiga, milliy alifboga, o'z qatlam so'zlarimizning asosi bo'lgan o'zbek tilidagi tub so'zlar o'zaklariga to'g'ri yondashmasdan turib, tobora chigallashib o'z o'zanidan chiqib borayotgan imloviy va nutqiy savodsizlikni tuzatishning, hozircha, imkoni yo'qdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V j.: www.ziyouz.uz.
2. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. –T., 1992.13-bet.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. – T., 1960, I j , 60-bet.
4. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Sh j. Muhokamat ul-lug'atayn. –T., 1948, 188-bet.
5. Ne'matov K. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. – T., 1992. 76-bet.
6. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., 1996. 23-bet.

7. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek tili. – T., 1992. 51-bet.
8. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –T.,1981. 7-bet.
9. Doniyorov X., Shukurov N., Yo'ldoshev B. Adabiy tilimiz muammolari // Yoshlik, 8 - son,1989, 54-bet.
10. Turniyozov N., Shodiev F. Ona tilimizdagi unlilar xususida // Boshlang'ich ta'lim, 1-son,1994, 40-bet.
11. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., 1996, 176-bet.
12. Mahmudov Q. Elimiz taqdiri – tilimiz taqdiri // Fan va turmush. 5-6-sonlar, 1993, 22-24-betlar.
13. Qo'chqortoyev I. va boshq. Tilimiz jozibasi tilsimi. //Xalq so'zi, № 146, 1993.
14. Вяткин В. Учебник узбекского языка для русских. – Самарканд- Ташкент, 1928; Громатович К.Д. Основной учебник узбекского языка. – Самарканд-Ташкент, 1930; Бибииков И.П. и др. Учебник узбекского языка. – Ташкент, 1936.
15. To'ychiboev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., 1996, 176-bet.

F.Shodiev

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, dotsent.

Shodiyevbt@gmail.com